



SHARQ PEDAGOGIKASIDA MA’NAVIY QADRIYATLAR

Ibragimova Dilnoza Rashid qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 1-kurs tayanch doktoranti

dili.ibrakhimova@mail.ru

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079658>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’limning zamonaviy yuksalish jarayonida ma’naviy qadriyatlarga asoslangan shaxslarni tarbiyalashda Sharq pedagogikasining o’rni, ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy qadriyatlar zamonaviy yuksalishning qudratli manbai ekanligi, tarbiyaning asosiy tamoyillari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Ma’naviy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Sharq pedagogikasi, barkamollik, qadriyat, ma’naviy ilm, axloqiy mas’uliyat.

Аннотация: В этой статье изложена роль Восточной педагогики в воспитании личности, основанной на духовных ценностях в процессе современного развития образования, духовные ценности созданные нашими предками, являющийся мощным источником современного развития, основные принципы воспитания.

Ключевые слова: Духовные ценности, национальные и общечеловеческие ценности, Восточная педагогика, гармоничность, духовная наука, нравственная ответственность.

Abstract: This article examines the role of Oriental pedagogy in educating a person based on spiritual values in the process of modern education development, the spiritual values created by our ancestors, which are a powerful source of modern development, and the main principles of education.

Key words: Spiritual values, national and universal values, social activity, Oriental pedagogy, harmony, spiritual science, moral responsibility.

Ta’limning zamonaviy yuksalish jarayoni, mamlakatimizning rivojlanish konsepsiyalarida iqtisodiyot, siyosat masalalari bilan bir qatorda milliy va ma’naviy qadriyatlarimizga asoslangan kuchli ma’naviyatni shakllantirish biz yoshlarning oldimizda turgan ustuvor vazifadir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalari, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo’lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz”. [1]

Yurtboshimizning ushbu ta’kidlariga tayangan holda zamonaviy, mustahkam ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda mustaqil fikrlaydigan, ezgu insonlarni voyaga yetkazish pedagogika fani zimmasida desak mubolag’a bo’lmaydi.

Sharq pedagogikasi tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ushbu pedagogik yo’nalish nafaqat ta’lim jarayonini, balki bizning dunyoqarashimizni, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni ham shakllantiradi. Kishilik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida inson kamolotining qonun-qoidalari, tartibi va vositalarini o’rganish, umumlashtirish davr talabidir. Pedagogika tarixi fanini o’zlashtirish



ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan inson kamoloti haqidagi g'oyalarga ijodiy yondashgan holda o'rganish imkonini beradi.

Barkamollik asrlar osha har bir davlat, har bir xalqning ezgu niyatlari, komil inson tarbiyasi konsepsiyasining negizi hisoblanadi. Insonning qay darajada barkamolligi uning ma'naviy dunyosi qandayligi bilan belgilanadi. Yaxshi tarbiya, go'zal xulq kishilik jamiyatining qimmatbaho boyligidir.

Sharq pedagogikasida ma'naviy qadriyatlar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni qanday tartibga solishga, inson ruhi va ma'naviyatini qanday rivojlantirishga qaratilgan.

Ma'naviy qadriyatlar tushunchasi. Ma'naviy qadriyatlar tushunchasining asl negizini anglash uchun, keling, eng avvalo “Qadr” va “Qadriyat” tushunchalarining mohiyatiga nazar solaylik.

Qadr – bu insonning o'zi yashab turgan jamoa, jamiyatdagi o'rni, roli, ayni bir vaqtda, jamiyatning unga bo'lgan munosabati mezonidir.

Qadriyat esa avlod-ajdodlari, ota-bobolaridan avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy axloqiy boyliklar, qimmatlar, an'analar, urf-odatlar, bir so'z bilan aytganda noyob ma'naviy merosdir. [2,81]

Ma'naviy qadriyatlar – bu odamlarning hayotidagi muhim amaliyot, ya'ni kechirish, hurmat, sabr-toqat, adolat va samimiyatni anglatadi. Ushbu xislatlar shaxs ichki dunyosini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

“Ma'naviy qadriyatlar” insonning axloqiy qiyofasi, ijtimoiy hayot, ong va munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan, jamiyat tarqqiyoti va turmushi ta'sirida shakllangan ma'naviy xususiyat va xislatlarning umuminsoniy hamda milliy fe'l-atvor ko'rinishlarini ifodalovchi tushunchadir.[3,107]

Sharq pedagogikasida ma'naviy qadriyatlar diniy, madaniy va tarixiy meros orqali shakllanadi va o'ziga xos falsafiy asosga ega.

Sharq pedagogikasida ma'naviy qadriyatlarning falsafiy asoslari. Sharq tamaddunida ma'naviy qadriyatlarning shakllanishida falsafiy fikrlarning ahamiyati katta. Xalqimiz ma'naviy yuksalishining eng qudratli manbayi hisoblangan, buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlarimiz, biz barpo etayotgan demokratik jamiyatning negizini belgilovchi, ma'naviy qadriyatlarimizni his etish, ular haqida chuqur bilimga ega bo'lishni shakllantiradi. Zardo'sht, Beruniy, Ibn Sino va Forobiy kabi faylasuflar axloqiy qadriyatlar, insoniyat rivoji va tarbiyasiga bag'ishlangan asarlar yaratdilar. Ularning asarlarida adolat, bilim, mehr-shafqat kabi qadriyatlar alohida ahamiyatga ega.



Beruniy inson eng asosiy qadriyatlardan biridir, tafakkur esa uni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ma'naviy omildir, deb hisoblagan. U ma'naviy qadriyatlar tizimini o'ziga xos tarzda ifodalaydi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi. Uning fikricha, yaxshi xulqlarga – rostgo'ylik, odillik, oqillik, mardlik, botirlik va muruvvatlilik kabi qadrlı xususiyatlar, yomon xulqlarga esa yolg'onchilik, zolimlik, qalloblik, o'g'rilik, hiylagarlik, nomardlik kabi jihatlar mansubdir.[4]

Tarbiyaning asosiy tamoyillari. Sharq pedagogikasida tarbiyaning asosiy tamoyillari:

- **Ma'naviyatni yuksaltirish:** ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarni bilib o'rganish, mantiqiy fikrlash va dunyoqarashini kengaytirish orqali ma'naviy yuksaltirishga erishish.

- **Axloqiy tarbiya:** talabalarga axloqiy qadriyatlar, o'zaro hurmat va adolatni o'rgatish

- **Ruhiy rivojlanish:** talabalarning ichki dunyosini rivojlantirish va ularning ruhiy holatini yaxshilash.

Din va ma'naviyat. Sharq pedagogikasida dinning o'rni alohida ahamiyatga ega. Diniy qadriyatlar, diniy ta'limotlar bir-birimizni hurmat qilish va mehr-oqibatga da'vat etadi.

Bugungi rivojlangan asrimizning talabchan, raqobatbardosh, keng dunyoqarashga ega, jamiyat hayoti va o'zgarishlarga befarq bo'lmagan ijtimoiy shaxslar kamoloti ma'naviy qadriyatlar sohasini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq pedagogikasida ma'naviy qadriyatlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u inson ruhiyatini, axloqiy yuksalishini va bilimsizlikka qarshi kurashishni ta'minlaydi. Ushbu qadriyatlar barchamizga ma'naviy ilm va axloqiy mas'uliyatni o'rgatadi, shuningdek, jamiyatda barqarorlik, tinchlik, va birlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Sharq madaniyatidagi ma'naviy qadriyatlar bugungi kunda ham zamonaviy hayotimizda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda va ularning rivojlanishiga qaratilgan sa'y-harakatlar davom ettirilmoqda. Ushbu qadriyatlarni qadrlash, saqlash tarbiyamizda muhim vazifadir.

Jamiyatning kelajagi yorqin va porloq bo'lishi uchun shu jamiyat a'zolarining, ayniqsa yoshlarning milliy va ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik tuyg'usini kuchaytirish katta ahamiyat kasb etadi.



“ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ” atamasındaǵı V Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Adabiyotlar:

1. Mirzoyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2020.
2. Xoliqov I., Sobirova M., Rustamov M. Ma’naviyatning axloqiy asoslari. – T.: 2013
3. Nazarov Q., To‘xtayev X. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2002.
4. To‘xtayev H.P. “Zamonaviy yuksalish jarayonida ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati” Jurnal: Falsafa va huquq, 2023/2, ISSN 2181-7294.